

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

E.X.Bozorov, R.B.Batirova “Atom elektr stansiyalari haqida umumiy ma’lumotlar” mavzusini “Tushunchalar tahlili” metodini qo’llab o’qitish.	222
G’.B.Samatov, Sh.A.Ashirov Kvant mexanikasida “Vodorod atomi uchun bor nazariyasi” mavzusini o’rganishda tarixiy materiallardan foydalanish	226
E.X.Bozorov, A.N.Jo’llyev Neytronlar fizikasi fani ma’ruzlarini o’qitishda “Venn diagrammasi” usulidan foydalanish	232

KIMYO

D.T.Xasanova, R.I.Asqarov Undirilgan bug’doyning kimyoviy tarkibi	236
M.G’.Yulchiyeva, X.X.Turayev, Sh.A.Kasimov, S.S.Zoirov Karbamid formaldegid anilin asosidagi polimer ligand sintezi va tadqiqi	242
I.R.Asqarov, B.X.Nizomov Yeryong’oq tarkibidagi qandli diabet kasalligini davolashda ishtirok etuvchi moddalarning kimyoviy tuzilishi	248
I.J.Karimov, M.M.Xozhimatov, I.R.Asqarov Karam sharbatining antioksidantlik xususiyatlari	251
N.Q.Usmanova, E.X.Botirov Dorivor qashqarbada mellilotus officinalis (L.) pall. o’simligining kimyoviy tarkibi	253
S.X.Mixmanova, I.R.Askarov “Asdavo” oziq-ovqat qo’shilmasining antioksidantlik faolligi.....	258
I.R.Asqarov, S.X.Mixmanova Homilador ayollarni toksikozini “Astosh” oziq-ovqat qo’shilmasi bilan davolash.....	262
R.I Asqarov, N.Kh.Abduraximova, Sh.A.Matamirova Qovun po’sti tarkibidagi vitaminlarni o’rganish va uning xalq tabobatida qo’llanilishi	266
S.B.Yangiyeva, Z.A.Smanova, A.X.Xaitbayev Cu, Cd, Co, Mn metall tuzlarining gossipol shiff asoslari bilan hosil qilgan komplekslarini sorbtsion-fotometrik aniqlash	271
I.R.Askarov, D.S.Khozhimatova Tarkibida ferrotsen hosilalari saqlovchi suyuq azotli mineral o’g’itlarni o’simliklarning o’sishi va rivojlanishiga ta’siri	276
Sh.T.Amirova, O.M.Nazarov, Sh.Sh.Turg’unboyev, R.M.Nishonova Achchiq shuvoq(ermon) o’simligini makro va mikroelementlarni tarkibidagi miqdorini aniqlash.....	280
I.R.Asqarov, K.T.Ubaydullayev Xalq tabobatida buyrak toshi kasalligini davolashda zaytun moyidan foydalanish	285

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO’JALIGI

I.I.Zokirov, M.U.Maxmudov, A.A.Yoqubov Pomidor agrobiotsenozida “fitofag-xo’jayin” munosabatlar tizimi	290
F.R.Xolboyev, F.O.Shodiyeva, H.S.Karimov, X.L.Akramov, N.S.Sagindikova Kolleksiyalar asosida turlarning zamonaviy tarqalish holatini aniqlash va baholash (<i>Merops</i> avlodi misolida)	296
V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev, Z.J.Isomiddinov Basma (<i>Indigofera tinctoria L.</i>) o’simligi va tuproqdagi mikroelementlarning o’zgarishi.....	300
K.Sh.Tojibayev, I.R.O’rinboyev, F.B.Umurzakova Lipa o’simligining morfologiyasi va fiziologiyasi, Farg’ona shahar florasidagi ahamiyati	304

ILMIY AXBOROT

F.R.Rajabboyeva, D.A.Abduraimxadjiyeva O’zbekistonda bank ishi faoliyati va unga oid hujjatlarining kelib chiqish manbalari	309
---	-----

**HOMILADOR AYOLLARNI TOKSIKOZINI “ASTOSH” OZIQ-OVQAT QO‘SHILMASI
BILAN DAVOLASH****ЛЕЧЕНИЕ ТОКСИКОЗА У БЕРЕМЕННЫХ ПИЩЕВОЙ ДОБАВКОЙ “АСТОШ”****TREATMENT OF TOXICOSIS IN PREGNANT WOMEN WITH FOOD SUPPLEMENT
“ASTOSH”****Asqarov Ibroxim Raxmonovich¹, Mixmanova Sultanoy Hayatullayevna²****¹Asqarov Ibroxim Raxmonovich**

– Andijon davlat universiteti professori, kimyo fanlari doktori

²Mixmanova Sultanoy Hayatullayevna

– Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada homilador ayollardagi toksikoz holatining kelib chiqish sabablari, turlari, xususiyatlari, asoratlari, belgilari, zamonaviy tibbiyotda uni davolash yo‘llari, hamda ularning kamchiligi bayon etilgan. Shuningdek, toksikoz kasalligini xalq tabobati usullari bilan, O‘zbekistonda o‘sadigan dorivor o‘simliklar asosida tayyorlangan Astosh oziq-ovqat qo‘shilmasi bilan davolash va oldini olish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari, bu borada erishilgan yutuqlar, hamda tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация

В данной статье описаны причины, виды, особенности, осложнения, симптомы токсикоза у беременных, способы его лечения в современной медицине, их недостатки. Также представлены результаты научно-исследовательской работы по лечению и профилактике токсикозов методами народной медицины и пищевой добавки Астосш, приготовленной на основе лекарственных растений, произрастающих в Узбекистане, достижения в этом отношении и рекомендации.

Abstract

This article describes the causes, types, features, complications, symptoms of toxicosis in pregnant women, methods of its treatment in modern medicine, and their shortcomings. Also presented are the results of research work on the treatment and prevention of toxicosis using traditional medicine and the food supplement Astosh, prepared on the basis of medicinal plants growing in Uzbekistan, achievements in this regard and recommendations.

Kalit so‘zlar: *Xomilador ayol, Toksikoz, infeksiya, trimestr, stress, xomila, stafillakokk, xalq tabobati, Astosh.***Ключевые слова:** *Беременная, Токсикоз, инфекция, trimestr, стресс, плод, стафилококк, народная медицина, Астосша.***Key words:** *Pregnant, Toxicosis, infection, trimester, stress, fetus, staphylococcus aureus, traditional medicine, Astosha.*

KIRISH. Toksikoz - bu ko‘ngil aynish va qayt qilishga undashlar bilan birga kechadigan homilador ayollarning juda keng tarqalgan holati. Bu holat homilaning rivojlanishida homilador ayollarda hosil bo‘lgan toksinlar va boshqa zararli moddalar bilan zaharlanish oqibatida paydo bo‘ladi. Toksikoz, shuningdek, turli xil alomatlarining namoyon bo‘lishiga olib kelishi mumkin, eng doimiylari markaziy asab tizimi, yurak - qon tomir tizimi va modda almashinuvlarini buzilishidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Toksikozning bir nechta darajasi bor.[1,2] Birinchisi - qayt qilishga undashlar kam kuzatiladi, kuniga 5 martagacha. Vazn yo‘qotish 3 kg gacha.

Ikkinchisi - qusishga undashlar kuniga 10 martagacha vazn yuqotishi 2 hafta davomida 3 - 4 kg bo‘lishi mumkin, bu qon bosimining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchisi - tez - tez yuzaga keladigan va uzoq davom etadigan, kuniga 25 martagacha ko‘ngil ko‘tarilishi, jiddiy vaznini 10 kg dan ortiq yo‘qotishi, tana haroratini ko‘tarilishi va yurak urishi tezlashadi.

Biz homilador ayollarda kechadigan toksikoz asoratlarni yengillatishda Astosh biologik oziq-ovqat qo‘shilmasidan foydalandik. Astosh biologik oziq-ovqat qo‘shilmasi qaynatilganda, undagi sulini shifobaxshligi suvga chiqadi. Bu qaynatmadan be‘mor ichsa, kuchiga kuch qo‘shilib, quvvati oshib boradi va ruhi yengillashadi, hamda unga to‘qlik hissini beradi. Astosh oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida suli bo‘lgani uchun sulini o‘zidan ham quyidagi tartibda qaynatma tayyorlab ijobiy natijaga erishildi. Bu qaynatma tayyorlash yo‘li quyidagicha tayyorlanadi: bir stakan suli toza suvda bir necha

KIMYO

marta yuviladi, keyin uni ikki stakan yoki 400 ml suvga solib, bu suvning yarmi bug'lanib ketgunigacha qaynatiladi. Keyin qaynatma suvini ajratib olib, unga 2 osh qoshiq asal qo'shiladida, yana bir necha daqiqa qaynatib, keyin ichiladi. [3,4]

Ayollar toksikoz homiladorlikning normal kechishi ekanligiga ishonib qolishgan va uning kuzatilmaligi bo'lajak onalarda qo'rquv va xavfsirash chaqira boshlamoqda. Xavotir olmang, bunday fikrlar butunlay asossiz va toksikoz kuzatilmaligi xavfli emas. Aksincha, bu bo'lajak ona butunlay sog'lom ekanligi anglatadi. Agar toksikoz bo'lmasa, bu normal holatdir. Organizm osonlik bilan yangi ish maromiga kirishadi, zo'riqishga bardosh bera olib, yangi holatga ko'ngil aynishi, qayt qilish va boshqa tizimlar buzilishlarisiz moslashdi.

«Toksikossiz» homiladorlikning ijobiy jihatlari:

Kuchli toksikoz tufayli homila tushish xavfi yo'q;

Rivojlanayotgan homila vitaminlarni o'z vaqtida qabul qiladi, bu uning rivojlanishini yaxshilaydi, hech qanday patologiyasiz kechadi;

Ajoyib kayfiyat va farovonlik, tananing hozirgi holatidan bahramand bo'lish imkonini beradi.

Toksikozning turlari. Stafilokokkli toksikozi — enterotoksigen shtammlar tomonidan chaqiriladi, bakteriyalar ko'payganda oziq-ovqat mahsulotlariga issiqlikka chidamli ekzotoksini ajratadi. Bunday hollarda darhol shifokorga murojaat qilish kerak, shifokor tekshirish va davolashni to'g'ri olib boradi.

Kechki toksikozlar — mashaqqatli va qiyin kundan keyin, yetarli miqdorda oziq-ovqat qabul qilinmagan bo'lsa, organizm zaiflashadi va toksikozlar hujumiga taslim bo'ladi. Kechki toksikoz uxlashga va tinchlikda dam olishga xalaqit beradi. Bunday holda organizmga kechki sayr qilishlar, yangi mevalardan tayyorlangan sharbat ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA. Homiladorlikning birinchi yarmida toksikoz — bu homiladorlikning taxminan 1-dan 14-haftagacha bo'lgan davridir. Shifokorlar birinchi trimestrda toksikoz alomatlarini xotirjamlik bilan boshdan kechirishni tavsiya qiladilar. Belgilarning kuchayishi bilan mutaxassislar o'simlikni kelib chiqishi xavfsiz mahsulotlarini belgilaydilar, bu homilador ayolning ahvolini sezilarli darajada yengillashtiradi va intoksikatsiyani kamaytiradi. Shuni ta'kidlash joizki, agar ona buyurilgan dorilarni qabul qilayotgan bo'lsa, u o'zini yaxshi his qiladi, ammo ushbu dori-darmonlarni qabul qilishni to'xtatsa, toksikoz belgilari darhol qaytadan boshlanadi. Homiladorlik davrida toksikozni kamaytirish uchun siz chaqaloq uchun nisbatan xavfsiz bo'lgan xalq tabobati usullariga murojaat qilishingiz mumkin.

Homiladorlikda kech toksikoz — normal homiladorlik rivojlanishi bilan ikkinchi trimestrda toksikozning qayta namoyon bo'lishi kuzatilmaydi. Ammo shunday holatlar bo'ladiki, kech toksikoz qusish va ko'ngil aynishni keltirib chiqaradi. Bu shishlar, siydikda oqsil mavjudligi, yuqori qon bosimi va haftasiga 400 grammgacha vazn olish bilan namoyon bo'ladi. Homiladorlik so'nggi bosqichlarida toksikoz qancha kuchli rivojlansa, ona sog'ligiga shunchalik ko'p salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin muntazam ravishda shifokorga tashrif buyuradigan onalar gestoz haqida o'z vaqtida ogohlantiriladi va vaqtida kasalxonaga yuboriladi. Davolash individual ravishda belgilanadi, bularning barchasi o'ziga xos holati va alomatlarini namoyon bo'lish darajasiga bog'liq.

Hayz kechikishidan oldin toksikoz — sizda ko'ngil aynishi urug'lantirishdan so'ng darhol yuzaga keldimi? Bu siz homilador ekanligingiz belgisi emas. Toksikoz homila tuxumining rivojlanishidan 7-10 kun o'tgach boshlanishi mumkin. Ammo ko'ngil aynishi va qayt qilish har doim ham namoyon bo'lavermaydi, aksincha, ko'p ayollarda kuchli ishtaha kuzatiladi.

Nega homiladorlikda toksikoz yuzaga kelishi hali ham aniq o'rganilmagan hodisadir. Mutlaq aniqlikda toksikoz belgilari erta va kech davrlarida nima uchun paydo bo'lishini aytish mumkin emas.

Ammo shifokorlar ba'zi sabablarini baribir ajratishadi:

Gormonal tizimdagi o'zgarishlar. Bachadon bo'shlig'idagi tuxum hujayra urug'lantirilishining dastlabki soatlaridan boshlab ayolda gormonal o'zgarishlar boshlanadi. Gormonlar tarkibi keskin o'zgarib turadi, bu esa homilador ayolning xulq-atvori, salomatligi va ahvolidagi aks etadi. Ushbu o'zgarishlarning fonida ayol ta'sirchan, tez xafa bo'ladigan va yig'laydigan bo'lib qoladi, hid bilish qobiliyati kuchayadi. Homiladorlikning birinchi oyida homila ona tanasi uchun «begona» hisoblanadi va organizm uni yo'q qilishni hohlaydi, bu esa onaning holatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ammo homilador ayollarda toksikoz qachon tugaydi? Biroz vaqtdan so'ng, gormonlar darajasi

barqarorlashdi va ona organizmi embrionni xotirjam qabul qiladi, toksikoz bilan kurash ikkinchi trimestrga kelib to'xtaydi.

Yo'ldosh (platsenta) ning rivojlanishi. Ushbu nazariyaning ehtimolligi juda mantiqan. Toksikoz homiladorlikning birinchi uch oylik davrida, ya'ni 13-14 haftaga qadar bezovta qiladi. Toksikozning keskin yo'qolishi yo'ldoshning shakllanib bo'lganligi bilan bog'liq. Va endi ko'p vazifalarning bajarilishi aynan yo'ldoshga o'tadi, shu jumladan zaharli moddalarning ushlanib qolishi. Yo'ldosh rivojlanish jarayoni tugamaguncha, homilador ayolning organizmi mumkin bo'lgan zaharlanishdan qayt qilish orqali himoyalanoqchi bo'ladi.

Himoya reaksiyasi. Onaning ba'zi mahsulotlardan bosh tortishi va homiladorlik paytida kech toksikoz bo'lishi, bu onaning tabiiy himoyalanihidir. Bo'lajak onada birinchi navbatda sigaretaning tutuniga, kofein saqlagan ichimliklarga, baliq, go'sht va tuxumlarga nisbatan ko'ngil aynishi kuzatiladi. Ularda mavjud patogenlarni hisobga olgan holda ushbu mahsulotlar salomatlik uchun xavfli bo'lishi mumkin. Ko'ngil aynishi va qayt qilish ona va homilani xavfli moddalar kirishidan himoya qiladi, bunday vaziyatda toksikoz biologik muhim sanaladi. Amaldagi oziq-ovqat mahsulotida mavjud bo'lgan toksinlar va zaharlarga qo'shimcha ravishda, har xil ovqat iste'molidan so'ng ishlab chiqarilgan insulin embrionning rivojlanishi va o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Surunkali infeksiyalar va kasalliklar. Oxirigacha davolanmagan infeksiyalar va kasalliklar homilador onaning immunitetini zaiflashishiga olib keladi. Bu birinchi trimestrda toksikozni keltirib chiqarishi mumkin, shunda nima qilish kerak? Vitamin komplekslarini homiladorlikni rejalashtirish bosqichida qabul qilishni boshlash, shuningdek, mutaxassisga murojaat qilish va to'liq tekshiruvdan o'tish zarur. Shundan keyin davolanish kursini o'tash muhimdir, ayniqsa infeksiyalar mavjud bo'lganda. Psixologik o'zgarishlar. Uchinchi trimestrdagi og'ir toksikoz onaning ruhiy va hissiy holati tufayli boshlanishi mumkin. Tashvishlar, stress, uyqusizlik, emotsional shok va asabiylashish jiddiy toksikozning sababchilari bo'lib, ko'ngil aynishi va qayt qilishiga olib keladi. Shifokorlarning fikriga ko'ra, kech toksikoz kutilmagan va rejasiz homilador bo'lgan ayollarda rivojlanadi. Bundan tashqari, ko'plab ayollar homiladorlikning birinchi trimestrda yoki keyingi davrlarida kuchli toksikoz kuzatilishi mumkinligiga o'zlarini tayyorlashadi. O'z-o'zini ishonitirish ta'siri esa har kimga ma'lum.

Olimlarning fikricha, homiladorlik boshlanishi bilan asab tizimi katta o'zgarishlarga duchor bo'ladi, oshqozon-ichak trakti va hid sezishga mas'ul bo'lgan bosh miya markazlari bu davrda faollashadi.

Yosh mezonlari. 30-35 yoshdan keyingi homiladorlik xavfli hisoblanadi, ayniqsa bu birinchi homiladorlik bo'lsa yoki bundan oldin ko'p abort qilishlar bo'lgan bo'lsa. Bu yoshda toksikoz rivojlanishi kuchliroq va xavfliroq bo'lishi mumkin. Mutaxassislar ta'kidlashicha, bo'lajak ona qancha yoshroq bo'lsa, toksikoz alomatlarini boshdan kechirish shuncha osonroq bo'ladi. Lekin bu hamma holatlarda emas, istisnolar ham mavjud.

Genetik fon. Ikkinchi uch oylik davrda toksikozning rivojlanishi irsiy omil ta'siri ekanligini ehtimoli katta. Agar avvalgi avlodda biron kim homiladorlikning 16- haftasida yoki boshqa davrlarida toksikozdan aziyat chekkan bo'lsa, 70% ehtimollik bilan bu muammo sizni ham chetlab o'tmaydi. Ayolning avvalgi homiladorlik davrida toksikoz bo'lsa, alomatlar kuchayishi xavfi ortadi.

Ko'p homilali homiladorlik. Bunday yangiliklardan quvonish, albatta, ko'proq, ammo ayni paytda qiyinchiliklar ham shunga yarasha bo'ladi. Misol uchun, egizakli homiladorlikning ikkinchi yarmida toksikoz bitta homilali homiladorlikning ikkinchi yarmidagi toksikozga qaraganda ikki marotaba ko'proq va jiddiyroq uchraydi. Ammo erta toksikozni boshidan kechirgan homilador ayollarda xavfi deyarli mavjud emas, buni bilish juda muhimdir.

Shuningdek aytib o'tish kerakki, sog'lom ayol toksikoz namoyon bo'lishiga kamroq moyil bo'ladi, lekin surunkali kasalliklari, infeksiyalari bo'lgan va nosog'lom turmush tarziga rioya qiladigan ayollarda toksikoz jiddiy kechadi.

Homiladorlikning birinchi yarmi va undan keyingi trimesterlar bilan bog'liq toksikozlar individual bo'ladi, shuning uchun: «Toksikoz qachon tugaydi», degan savolga hech kim aniq javob bera olmaydi. Ayrim onalar ko'ngil aynishning yengil alomatini boshdan kechirishadi, boshqalar esa toksikozni yengish uchun bir necha hafta kasalxonada yotishadi. Shu omil toksikoz davomiyligiga ham taaluqli, chunki homiladorlikda toksikoz turli trimestrlarda kuzatilishi mumkin, lekin ko'p hollarda 14-haftaga kelib u o'zi o'tib ketadi.

KIMYO

Toksikoz belgilari yo'ldosh hosil bo'lguncha davom etishi mumkin va bu jarayon taxminan 12-yoki 14-haftaga kelib tugaydi. Shundan so'ng, ikkinchi trimestrning sokin kechishi boshlanadi. Uchinchi trimestrda toksikoz yana qaytalanishi mumkin, biroq u mutlaqo boshqa nomlanish — gestoz deb ataladi.

Shunday holatlar bo'ladiki, bo'lajak onalarda toksikoz oxirgi trimestrda boshlanadi, bu erta homiladorlikdagi toksikozdan ko'ra xavfliroqdir. Agar kech toksikoz belgilari kuzatilsa, darhol mutaxassisga murojaat qilish kerak.

XULOSA. Xulosa qilib aytganimizda: toksikoz belgilari ko'pincha homiladorlikning dastlabki 3 oylikkacha bo'lgan davrda namoyon bo'ladi. Bu davrda homilaning orgagenez, ya'ni hamma organlarining nuqtalanishi shakllanish davri bo'ladi. Toksikoz homilador ayolga har xil sintetik dorilarni inyeksion formada quyishimiz homilani nuqsonlik sababini keltirib chiqarishi mumkin. Biz Astosh damlamasini homilador ayolni toksikozida qo'llaganimizda unda mutlaqo zararli sintetik moddalar yo'qligi sababli undan foydalanishda qo'rqmasligimiz mumkin. Homilador ayolda toksikoz o't pufagini dimlanishi sababli kelib chiqadi. Bunda o't pufagi yog' parchalanishida qatnasha olmaydi. Shuning uchun har qanday ovqatni organizmdan qayt qilish orqali chiqarib yuboradi va organizmda quvvatsizlik kelib chiqaradi, oshqozonga hech narsa tushirmay qo'yadi. Astoshda suli yormasi borligi sababli oshqozonga tushgach unda yog' moddasi yo'qligi tufayli o't pufagi, oshqozon-ichaklarga qarshi zararli ta'sir qilmagani uchun oson xazm qilinadi bu esa homilador ayolga quvvat beradi hamda homilani yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1 Эрман М. В. Фитотерапия в лечении инфекции мочевой системы у детей // Эффективная фармакотерапия. 2014, № 2 (16), с. 18–22. (Erman M. V. Phytotherapy and treatment of urinary tract infections // Effective pharmacotherapy. 2014, No. 2 (16), p.18–22.)

2. Сравнительная оценка эффективности препаратов железа при лечении железодефицитной анемии в акушерской практике // Человек и социум: Межвузовский сборник научных статей МГСУ. - Мурманск, 2004. - С 21-32. (Comparative evaluation of the effectiveness of iron preparations in the treatment of iron deficiency anemia in obstetric practice // Person and society: Interuniversity collection of scientific articles of MGSU. - Murmansk, 2004. - From 21-32.)

3. И.Р.Асқаров. Табобат қомуси. Мумтоз сўз. Тошкент – 2019. (I.R. Askarov. Encyclopedia of medicine. Classic word. Tashkent - 2019.)

4. И.Р.Асқаров. Сирли табобат. – Т: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. (I.R. Askarov. Mysterious medicine. - T: Science and Technology Publishing House.)